# “O‘zkimyosanoat” AJ – Yoshlar bilan ishlashda eng namunali 30 tashkilotdan biri!

// 30.06.2025
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-yoshlar-bilan-ishlashda-eng-namunali-30-ta




Yoshlar siyosatini samarali amalga oshirish, ularning salohiyati va ijtimoiy faolligini ro'yobga chiqarish borasida tizimli faoliyat olib borayotgan "O'zkimyosanoat" AJ yurtimizda yoshlar bilan ishlashda ilg'or tajriba namoyon etgan tashkilotlar qatoridan o'rin oldi.

Yoshlar ishlari agentligi tomonidan respublika bo'yicha 150 dan ortiq vazirlik va idoralar orasidan tanlab olingan eng faol "TOP-30" tashkilot ro'yxatiga "O'zkimyosanoat" AJning ham e'tirof etilishi – tizimda yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirish borasida berilgan yuksak baho hisoblanadi.

Bugungi kunda jamiyat tizim korxonalarida yoshlar salohiyatini qoʻllab-quvvatlash, ularni innovatsion, intellektual, sport va ijtimoiy loyihalarga jalb etish, ragʻbatlantirish va malakasini oshirish boʻyicha keng koʻlamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, “Oʻzkimyosanoat” AJ Boshqaruvi raisining yoshlar masalalari boʻyicha maslahatchisi Muhammadbobur Abdurazakov  tashabbus va faoliyati ushbu yutuqlarda muhim oʻrin tutib, uning yoshlar bilan ishlashdagi namunali yondashuvi alohida e’tirof etildi.

Ushbu e'tirof — yoshlar siyosatini tizimli asosda amalga oshirish, ularning imkoniyatlarini kengaytirish va har tomonlama qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan ishlar samarasi hisoblanadi.

**“Oʻzkimyosanoat” AJ Matbuot xizmati**